

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TGAN KUNLAR” ROMANINI O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDA MILLIY MADANIY XUSUSIYATLARNING AKS ETTIRILISHI

Ashurov B. SH

fil.f.n., dots

Sayidqulova N

NavDPI magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar: tarjimashunoslik, badiiy adabiyot, roman, sinonim, ekvivalent, lingvistik, ijtimoiy – siyosiy, ma’naviy – axloqiy, madaniy xususiyat, milliy an’analar.

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarjimashunoslik nazariyasiga ko‘ra, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanini o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida milliy xususiyatlarning tasvirlanishi va ularni chet tilda to‘laqonli hamda muallifning asl maqsadini, ifodaviy xususiyatlarini yo‘qotmagan holda tarjima qilishga oid masalalar yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

O‘zbek romanchiligining poydevori hamda noyob durdonasi bo‘lmish Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani bir qarashda ikki sevishtan va ularning taqdiri haqida hikoya qiluvchi asarga o‘xshasada, aslida o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy muammolari yoritilgan asardir. Yozuvchi bosh qahramonlar: Otabek va Yusufbek hoji obrazlari orqali shu yurt istiqboli, farovonligi, osoyishtaligi uchun o‘z jonini tikkan fidoiy kishilarni madh etgan.

O‘zbek xalqining boy adabiy merosi “O‘tgan kunlar” romonida yozuvchi Abdulla Qodiriy nafaqat o‘zbek xalqining milliy an’analarini aks ettirgan, shu bilan birga o‘sha davrda xalq boshidan kechirgan mashaqqat va adolatsizlikni, xonliklar o‘rtasidagi taxt uchun kurash va bu kurashlar natijasida oddiy xalqning aziyat chekkan hayotini tasvirlagan.

“O‘tgan kunlar” romani bir necha tillarga tarjima qilingan. Jumladan, rus tiliga Muhammadnodir Safarov tomonidan “Минувшие дни” nomi bilan tarjima qilingan. 1968-yili Germaniya Demokratik Respublikasi poytaxti Berlinda “Die Liebenden von Tashkent”, ya’ni “Toshkentlik sevishtanlar” nomi ostida rus tili orqali nemis tiliga o‘g‘irilib nashr qilingan.

Adibning “O‘tgan kunlar” romani yurtimizda ilk bor Samarqand davlat chet tillar instituti rektorlari Ilhomjon To‘xtasinov va britaniyalik Kerol Ermakova tomonidan “Last days” nomi bilan tarjima qilingan. Romanning ingliz tilidagi versiyasi Fransiyaning mashhur Nouveau Monde Editions nashriyoti tomonidan Karimov fondi ko‘magida chop etilgan.

Amerikalik olim va tarjimashunos Mark Rizning 15 yillik mehnat natijasida asarning 1926-yilgi asl nusxasi 2020-yilda ingliz tiliga “Bygone days” nomi bilan tarjima qilingan. Olim asarga shunday ta’rif bergan: ““O‘tgan kunlar” bu o‘tmish haqidagi roman bo‘lib, hozirgi kunni kelajak uchun ogohlantirish sifatida tasvirlaydi”.

Badiy adabiyotda bunday original asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish tarjimondan tarixiy, lingvistik, madaniy bilimlar va soʻz boyligi hamda soʻzning sinonimi yoki ekvivalentini oʻrinli qoʻllay olish mahoratini talab etadi. Bunda tarjimonning asosiy vazifasi asarning haqiqiy maʼnosi va yozuvchining maqsadini asl holida toʻlaonli bayon etishdir.

Quyidagi keltirilgan namunalarda oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonidagi holatlarni koʻrib chiqadigan boʻlsak:

Qutidorning tashqarisigʻa er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar toʻlgʻanlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlandirlar.

The male half of the courtyard is full of men, the women's quarters are packed with women, they are being feted with a vast array of dishes and delicacies, wondrous halva and nishalda. (K. Ermakova)

The male guests were celebrating in the male half of the outer courtyard of Qutidor's house while the female guests filled the Ich Kari. Honored with a lavish meal of suyuqosh and rich halva and fresh nishaldah, all were shown every courtesy. (M. Riz)

Ushbu misolda K. Ermakova yozuvchi tomonidan "birinchi taom" va "asosiy taom" maʼnolarida ishlatilgan "quyuq osh", "suyuq osh" soʻzlarini "dishes and delicacies" deb tarjima qilgan. Delicacy soʻzi "expensive food" degan maʼnoni anglatgani sababli, ushbu oʻrinda qoʻllash gapning toʻliq mazmuni ochib bera olmaydi.

M. Riz esa "a lavish meal of suyuqosh" soʻz birikmasidan foydalangan. Holva va nisholda soʻzlari esa "halva", "nishalda" va "nishaldah" shakllarida berilgan.

"Kumushning oy-kuni yaqin edi" jumlasini "Kumush's delivery date neared" deb tarjima qilingan. Yaʼni, ingliz tilidagi tarjimada "delivery date" "to have a baby" - farzandli boʻlmoq deb soda tarzda berilishi mumkin edi. Lekin, tarjimon buning oʻrniga yozuvchining soʻz mahoratini tarjimada yoritib berish uchun maʼno jihatdan ekvivalent boʻlgan "Time to give a birth is coming up" jumlasini qoʻllagan.

Nabiralik boʻladirgan Oʻzbek Oyimning ishi boshidan oshkan, Kumushning oyi tugʻmasdanoq ul beshik yasatish bila mashgʻul edi. Ushbu gapdagi beshik yasatish soʻz birikmasi "to build a beshik" deb berilgan, yaʼni, beshik oʻzbek madaniyatiga oid realiya boʻlgani uchun ingliz tiliga tarjima qilinmagan.

"Doyacha kim, aqiqagʻaga nechta qoʻy kerak, nechanchi kunda toʻy oʻtkaziladir, nechta erkak, nechta xotin aytiladir va kimlar? Mana, shuningdek masalalar bilan Oʻzbek Oyimning miyasi juda shishkan edi." – "Uzbek Oyim, thrilled to see a grandchild on the horizon, engaged in busybodying about, loudly barking orders. Questions of who the midwife should be, how many sheep should be slaughtered for the baby shower, on what date the baby's future marriage would take place, how many men and women should be invited and who should not? — Uzbek Oyims mind was preoccupied with these sorts of sundry issues."

"Doyacha" boshqa xalqlar madaniyatida borligi sababli "midwife" soʻzi bilan ingliz tiliga oʻgirilgan. "Oʻzbek Oyimning miyasi juda shishkan edi" jumlasini esa boshqa tillarda miyasi shishkan iborasi ishlatilinmaganligi bois, "engaged in busybodying" - "ishi boshidan oshgan" degan maʼnoda va keyingi gaplarda "Uzbek Oyim's mind was preoccupied with..." yaʼni "aqli band edi" deb tarjima qilingan.

Eshitmadim... Chiqq bersak ham boʻlar, - dedi Hasanali. Shu payt ichkaridan xotirlarning favqulodda qiy-chuv tovushlari eshitilib, ikkinchisining ham quloqlari tikkaydi...

"I haven't heard the call yet... we can go out..." said Hasan Ali. At that moment the wrenching, trilling cries of the women echoed forth from the inner rooms. Their ears sharpened to the weeping of the women...

Ushbu parchadagi "quloqlari tikkaydi" iborasi "ears sharpened" yoki "ears became sharp" deb tarjima qilingan.

Oradan ko‘b fursat o‘tmadi, ichkaridan Oybodoq yugurib chiqdi va darichadan turib: “So‘yinchi!” – dedi.

Not a moment had passed between them when Oibadak ran in from the inner rooms and, standing in the small doorway, said, "Suyinchi".

Yuqoridagi gapda esa O‘zbek madaniyatiga xos an‘ana suyunchi – qutlov, tabriklash ma‘nosida ishlatilgani uchun ingliz tiliga tarjima qilinmay, asl holicha berilgan.

➤ O‘g‘ulmi, holva? – deb so‘radi xotinidan.

"Is it a son or a daughter?" he asked his wife

Yana bir o‘zbek madaniyatiga xos xususiyatlardan farzand jinsini so‘rashda qiz farzand shirin deb erkalatilgani bois holvaga qiyoslanadi. Asarda ham qiz yoki o‘g‘il deb so‘rash uchun “holva ” so‘zi o‘rniga ingliz tiliga tarjimada “daughter” deb qo‘llanilgan.

➤ Yo‘q, - dedi O‘zbek Oyim, - chillalik uyga kechasi ko‘chadan kelib kirish yaxshi emas...

"No," said Uzbek Oyim. "It is not good to enter the house in the evening straight from the street with a newly born baby at hand..."

Chilla yangi chaqalog‘I bor uy degan ma‘noda qo‘llanilgani va milliy madaniyatga xos xususiyat bo‘gani sababli, uni ingliz tiliga tarjima qilib bo‘lmaydi.

Otabek kirganda o‘zining siniqqan yuzi, ichkariga botinqirag‘an ko‘zi bilan Kumush iljayib unga qaradi. Otabek tutilinqirab, “muborak bo‘lsin” dedi. Kumush javob o‘rniga uyalib, yuzini ko‘rpaga yashirdi.

When Otabek entered, Kumush smiled at him through her pale face and sunken eyes. Otabek, losing control of himself, cried: "Congratulations!" Instead of answering, Kumush bashfully hid her face under the blanket

“...uyalib yuzini yashirdi” jumlasini ingliz tilida “bashfully hid her face under the blanket” deb berilgan.

Otabek tabriklaganda Kumush yuzini ko‘rpa bilan yashirgani o‘zbek madaniyati va ayollariga xos sharm – hayoni ifodalaydi. “Ko‘rpacha” so‘zi esa ingliz tiliga “blanket” deb tarjima qilingan. Lekin bu tarjima madaniy xususiyat, realiya jihatdan olib qaraganda munosib emas. Chunki, ko‘rpacha qo‘l mehnati bo‘lib, tarjima qilinmasdan, milliy til leksikasida saqlanib qolishi kerak.

Otabek eshik yoniga kelgandan so‘ng uydan bir necha xotin paranji yopinib chiqdilar-da, ul uyga kirdi.

When Otabek neared the door, women carrying veils exited, and he entered the room.

“Paranji” so‘zi ham milliy madaniyatga xos, milliy kiyim bo‘lgani uchun boshqa tilga tarjima qilinmasdan, o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun tushintirish bilan berilishi lozim.

Bu keltirilgan misollardan ayonki, tarjimashunoslikda bu kabi linguamadaniy qiyinchiliklarga ko‘p o‘rinlarda duch kelinadi. Asarning badiiy qiymatini yo‘qotmasdan tarjima qila olish, yozuvchining asl maqsadi, milliy madaniyat va an‘analarga xos atama va so‘zlarni asarning bo‘yoqdorligini, jozibasini saqlagan holda o‘quvchiga yetkazib bera olish hamda bu jarayonda katta mehnatga sabab bo‘ladigan qiyinchiliklar, izlanishlar tarjimondan ulkan mahoratni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent, 2018.
2. Qodiriy A. The past days. -T. Ilm-ziyo-zakovat, 2019. (Qodiriy A. The past days. – T. Ilm-ziyo-zakovat, 2019)
3. Mark E. Reese. Bygone Days.- Library of Congress Control Number.

4. Khajieva, Feruza. (2019). Decoding of stylistic devices in Russian and English translations of the Uzbek novel “Days gone by” by Abdulla Qadiri (stylistic correspondences and transformations). *Theoretical & Applied Science*. 72.
5. Hamroyev H. Milliy xos soʻzlar-realiyalar va badiiy tarjima. *Tarjima madaniyati (maqolalar toʻplami)*.-Toshkent, 1982
6. Salomov Gʻ. *Tarjima nazariyasiga kirish*. Toskent: Oʻqituvchi, 1978
7. www.ziyouz.com
8. www.ares.uz